

## **TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI**


*2025- yil yanvar-aprel oylari uchun dastlabki ma'lumot*

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar

### **I. TASHQI SAVDO AYLANMASI**

2025- yil yanvar-aprel oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1824,6 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 183,1 mln AQSH dollariga yoki 11,2 % ga ko'paydi.

**Tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)**



TSAda eksport hajmi 594,2 mln AQSH dollariga (2024- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 7,4 % ga ko'paydi) va import hajmi 1230,4 mln AQSH dollariga (13,1 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 636,2 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Toshkent viloyatining yirik hamkor davlatlar  
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln AQSH dollari)**

<b>Davlatlar</b>	<b>2024-y.</b>	<b>2025-y.</b>
Xitoy Xalq Respublikasi	445,3	553,4
Rossiya Federatsiyasi	481,5	525,7
Qozog'iston	192,3	208,3
Turkiya	126,0	106,2
Germaniya	30,2	47,7
Belorussiya	42,7	40,5
Tojikiston	22,0	38,9
Afg'oniston	20,5	33,6
Braziliya	29,8	23,7
Qirg'iz Respublikasi	14,9	19,7
Hindiston	12,6	19,4
Italiya	43,3	18,3
Koreya Respublikasi	10,6	14,1
Belgiya	12,2	13,2
Indoneziya	2,9	12,5
Turkmaniston	8,6	12,3
Eron Islom Respublikasi	12,1	11,7
Ukraina	6,7	8,8
Polsha	6,2	8,7
Gonkong	0,7	8,4


Toshkent viloyati jahonning 94 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (30,3 %), Rossiya Federatsiyasida (28,8 %), Qozog'istonda (11,4 %), Turkiyada (5,8 %) va Germaniya (2,6 %) qayd etilgan.

**II. TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI**

<b>Tarkibi</b>	<b>Mln AQSH dollari</b>		<b>O'zgarish sur'ati, % da</b>		<b>Umumiy hajmga nisbatan, % da</b>	
	<b>2024- y.</b>	<b>2025- y.</b>	<b>2024- y.</b>	<b>2025- y.</b>	<b>2024- y.</b>	<b>2025- y.</b>
<b>Jami eksport</b>	<b>553,4</b>	<b>594,2</b>	<b>90,6</b>	<b>107,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	58,5	80,6	94,7	137,9	10,5	12,7
Ichimliklar va tamaki	3,9	3,4	151,4	86,6	0,7	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	20,9	16,9	140,2	80,8	3,8	2,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,4	2,2	2,6 m.	50,0	0,8	0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,3	4,4	-	133,1	0,6	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	32,1	37,4	125,9	116,7	5,8	10,7
Sanoat tovarlari	331,0	338,0	80,9	102,1	59,8	37,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	20,0	27,8	130,0	138,6	3,6	8,3
Turli xil tayyor buyumlar	77,2	77,3	97,4	100,1	14,0	26,1
Xizmatlar	2,1	6,2	2,0 m.	2,9 m.	0,4	1,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,9 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (37,7%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,7%), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (10,7%) va turli xil tayyor buyumlar (26,1%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Toshkent viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari**  
*(mln AQSH dollari)*



2025- yil yanvar-aprel oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz, Rossiya Federatsiyasi (33,5 %), Xitoy (26,5%), Turkiya (9,1 %), Qozog'iston (6,3 %), Afg'oniston (5,4 %), Tojikiston (2,6 %), Belgiya (2,0 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 85,4 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-aprel oylarida 53,7 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 115,0% yoki 7,0 ming tonnaga ko'paydi.


**Meva va sabzavotlar eksporti**

*2.2- jadval*

	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollar	Hajmiga nisbatan, o'sish sur'ati
<b>Jami</b>	<b>53 722,5</b>	<b>37 380,0</b>	<b>115,0</b>
<b>Sabzavotlar</b>	46 280,4	26 755,6	109,1
<b>Uzum</b>	3 459,7	3 384,4	2,4 m.
<b>shu jumladan: qurutilgan</b>	1 567,8	2 278,8	156,1
<b>Mevalar va rezavorlar</b>	3 523,0	6 623,6	141,4
<b>shu jumladan: qurutilgan</b>	1 852,4	3 430,5	119,7
<b>Yeryong'oqlar</b>	459,4	616,4	124,6

2025- yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 33,4 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 25,3 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

**Xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSH doll.)**



Xizmatlar eksporti hajmi 6 184,9 ming AQSH dollarini tashkil qildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (40,5 %), axborot xizmati (20,2 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (14,3 %), savdo xizmatlari (12,2 %), moliyaviy xizmatlar (8,8 %) va boshqalar (4,0 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

**III. TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI**

2025- yilning yanvar-aprel oyida import hajmi 1 230,4 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,1 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (27,8 %), Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,0 %) hamda sanoat mahsulotlari (14,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.

**Toshkent viloyatining importi tarkibi**


*3.1- jadval*

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
<b>Jami import</b>	<b>1 088,1</b>	<b>1 230,4</b>	<b>86,1</b>	<b>113,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	234,8	209,2	100,0	89,1	21,6	17,0

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Ichimliklar va tamaki	1,1	1,4	59,3	134,3	0,1	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	73,5	116,3	30,8	158,1	6,8	9,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	157,1	178,0	157,5	113,3	14,4	14,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	28,2	43,1	107,6	152,9	2,6	3,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	106,4	135,8	86,0	127,6	9,8	11,0
Sanoat tovarlari	138,7	179,9	84,1	129,6	12,7	14,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	303,6	341,6	87,9	112,5	27,9	27,8
Turli xil tayyor buyumlar	19,7	23,1	74,2	117,6	1,8	1,9
Boshqa tovarlar	23,6	0,9	37,0 m.	3,4	2,2	0,1
Xizmatlar	1,4	1,3	88,2	93,5	0,1	0,1

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar-aprel oyida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,4 mln AQSH dollariga ko'paydi va 1 230,5 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,3 mln AQSH dollariga yetdi.


**Toshkent viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari**  
*(mln AQSH dollari)*



2025- yil yanvar-aprel oylarida Toshkent viloyati 76 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Xitoy Xalq Respublikasi (32,2 %), Rossiya Federatsiyasi (26,6 %), Qozog'iston (13,9 %), Turkiya (4,2 %), Germaniya (3,7 %), Belorussiya (2,8 %) va Tojikiston (1,9 %) jami importning 85,3 % ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1,3 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 0,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 93,5 % ga kamaydi.

**Xizmatlar importi tarkibi (ming AQSH dollarida)**



Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa transport xizmatlari (62,8 %), safarlar (turizm xizmatlari) (18,1 %), Boshqa soxadagi kasbiy va maslaxat xizmatlari (12,5 %) va boshqa xizmatlar (6,6 %) ga tegishli bo'ldi.

**IV. METAMA'LUMOTLAR**

\*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezedentdan norezedentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

<b>Chop etishga masul:</b> Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	<b>Ijrochi:</b> M.Mirzokirov Tel: +998712034500 (4541)	<b>Manzil:</b> Toshkent viloyati Nurafshon shahar Toshkent yo'li ko'chasi, 90
--	---	---